



OLIIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TA'LIM JARAYONIDA VA IJTIMOIIY HAYOTDA MA'NAVIIY MEROSIMIZ ASOSIDA TARBIYALASH

G. Roziqova

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender – xotin-qizlar hamda erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'layotgan. G'arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi bilan bir qatorda, sharqona gender tengligining o'ziga xos jihatlari allomalarning qarashlari misolida ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ota-ona va farzand munosabatlari, oila mustahkamligi, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq, G'arb va Sharq tamadduni, sharqona gender tengligi.

Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy qadriyatlar, insoniy burchlar masalalari barcha davrlarda ham o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lgan. Mazkur masala yuzasidan faylasuflar, psixolog va pedagoglar doimiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbekiston sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos ahamiyatga ega.

Gender tenglikni ta'minlashda har bir jins vakiliga u to'laqonli jamiyatning a'zosi, mustaqil shaxs sifatida qarashga e'tibor qaratiladi. Inson qadrlanar ekan, tabiiyki, bu siyosat umuminsoniy qadriyatlar ruhida ekanligini tan olish kerak. Odamlarni jinsi bo'yicha farqlash bir xil jins vakillariga nisbatan adolatsizlikdir. Sharqning buyuk mutafakkirlari ham shaxsni tarbiyalashda u yigit, qiz deb farqlamagan. Hammasi inson deb qaralgan. Abu Nasr Forobiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson g'oyasini targ'ib qilgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" asarlarida bola tarbiyasi masalasida jinslarga ajratmaydi. Har qanday inson ta'lim olishi, uni jamiyat manfaatlarini yo'lida qo'llay bilishi lozim. Shaxsda yashirin iqtidor bo'ladi, o'z ustida ishlab uni yuzaga chiqarishi kerak, degan g'oyalar asarlari zamiriga singdirilgan.

Abu Ali ibn Sinoning ham oilaviy munosabatlar masalalariga oid qarashlari diqqatga sazovor. Uning "Tadbiri manozil" asarida ayollarning yaxshi xulqli, bilimli, e'tiqodli, uyatchan, sharm-hayoli, jasur, erini qattiq sevadigan, tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylaydigan, ezma bo'lmagan, eriga itoatkor, xushmuomalali, to'g'ri, kamtar va farosatli, o'z vazifasi va burchini yaxshi biladigan va tejamkor bo'lishi kerakligi haqida fikrlar yuritiladi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining "Uylanish va xotinlar to'g'risidagi" bobida uylanish hamda uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlarini haqida fikrlar bayon etilgan: "Yaxshi xotin – oilasining davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa, ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartibintizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi".



Qariyalarni e'zozlagan, qadrlagan, ularni asrab-avaylagan hamda yosh avlod tarbiyasida ustoz darajasida ko'targan davlat va jamiyat o'z ma'naviy takomilida bir qadar yuksalish jarayonini amalga oshirgan bo'ladi. Chunki uzoq yillar turli sinovlar natijasida hayot saboqlarini olgan, bebaho hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksa avlod vakillarini qadrlash va e'zozlash har jihatdan insoniy burchdir. Keksalarni qadrlash, ularga hurmat-e'tibor ko'rsatish borasida bizning xalqimizdek bag'rikeng, mehr-muruvvatli xalq bo'lmasa kerak. Bu, avvalo, oilada farzandlarning ota-onaga g'amxo'rliqi, mehribonligida o'z ifodasini topadi. Mahalla-ko'y yumushi, to'y- O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol 154 ma'raka, jamoatchilik tadbirlarida ham yoshi ulug' insonlar tajribasiga tayaniladi, ularning maslahati olinadi. Yoshi ulug', keksa deganda, ko'z o'ngimizda, avvalo, ota-onamiz, bobo-buvilarimiz namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har birimiz yaxshilikni, ezgu ishlarni o'z oilamizdan, otaonamizga hurmat-ehtirom ko'rsatishdan boshlaymiz. Bu har bir insonning farzandlik burchi, insoniy fazilati hisoblanadi. Konstitutsiyamizda ham voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburligi belgilab qo'yilgan. Yurtimizda keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikka javoban nuroniylar ham mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ta'lim jarayonida gender o'xshashlik va farqlarni hisobga olish ijtimoiy hayotda jinslararo munosabatlarning o'ziga xoslik va individuallik kasb etishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq maqollarida jamiyatda erkak va ayolning o'rni, farzand tarbiyasida, oilada gender tenglik bilan birga o'ziga xos yondashuvni talab etuvchi nozik qirralar ham borligi uqtiriladi. Bundan ko'rinadiki, ayol va erkakka nisbatan o'ziga xos muomalaning amalga oshirilishi bu gender tengsizlik oqibati emas, balki bu ikki jins vakilining tabiati, imkoniyati, xususiyatlarini inobatga olish lozimligini ifodalovchi holatdir. Bu jihatlar o'zbek mentalitetida azal-azaldan inobatga olingan bo'lib, har ikkala jins vakilining o'rini, mavqeyini also kamaytirmaydi. Ko'rinib turganidek, maqollar xalq ruhiyatini o'zida ifoda etar ekan, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda bu vositalarning tezkor va samarali ta'siridan unumli foydalanish lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ибн Сино. “Тадбири манозил”. – Душанбе: Ирфон, 1983, 154. – Б. 13-28. 12. Abu Nasr Forobiy 2. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2016. – 320 b. 12. Temur tuzuklari [tarjimon]
2. Haydarbek Bobobekov], “Fan va texnologiya” nashriyoti. – Toshkent, 2014. – B. 196. 13. Alisher
3. Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. – Toshkent: “Sano-standart”, 2018.
4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 2000. B-83.
5. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2016.